

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARI TARJIMASHUNOSLIGIDAGI
HAMOHANGLIK.**

Ismanova Odinaxon Urunbayevna

Andijon davlat chet tillari instituti

Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida doktoranti

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar maʼno jihatidan yaqin boʻlsa ham, baʼzan ulardan birini ikkinchisining oʻrnida ishlatib boʻlmaydi. Masalan: ayanch ahvol, ogʻir ahvol, qiyin ahvol, mushkul ahvol birikmalarida ayanch, ogʻir, qiyin, mushkul soʻzlari bir-biriga sinonim boʻlib, ayni oʻrinda ularni almashtirish maʼnoga taʼsir qilmaydi. Ammo boshqa bir konkret tushuncha yoki tasavvurni ifodalashda bu sinonim soʻzlarni leksik maʼno nuqtai nazaridan baholash lozim boʻladi. Masalan, ogʻir chamadon deyish mumkin boʻlgan holda, mushkul chamadon, qiyin chamadon deyish kulgilidir. Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham oʻzaro farqlanadi. Masalan, barcha nutq stillarida ishlatiladigan umumnutq soʻzi, dudoq - badiiy nutq soʻzi; shamol - umumnutq soʻzi; sabo - badiiy nutq soʻzi; rohat - umumnutq soʻzi; eslamok - umumnutq soʻzi; xotirlamoq - rasmiy nutq soʻzi; yoʻqlamoq - soʻzlashuv nutqi soʻzi. Bu xil sinonimlar stil (uslub) sinonimlari deyiladi. Xuddi shu nemis til muhitida esa: Zum Beispiel: erbärmliche Situation, schwierige Situation, trauriger Zustand. ärmliche Situation, schwierige Situation, trauriger Zustand. Die Wörter erbärmlich, schwierig, trauriger sind Synonyme für einander, und das Ersetzen an derselben Stelle hat keinen Einfluss auf die Bedeutung. Aber wenn man ein anderes Konkretes Konzept oder eine Idee ausdrückt, ist es lustig, einen schweren Koffer, einen schwierigen Koffer zu sagen, während es möglich ist einen schwären zu sagen Koffer. Synonyme unterscheiden sich auch in Bezug auf den Umgang der sprachlichen Verwendung.

Shuningdek, ishlatilish doirasi chegaralangan yo chegaralanmagan boʻlishi mumkin. Masalan, keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, moʻysafid kabi bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar orasida qari soʻzining ishlatilish doirasi keng. Bu soʻz insondan tashqari, hayvonlar uchun ham qoʻllaniladi: qari ot, qari tulki kabi. Lekin oqsoqol, nuroniy, moʻysafid sinonim soʻzlarining ishlatilish doirasi chegaralangan. Bunday holatlar ishlatilish doirasining keng - torligi sinonimlar maʼno hajmiga, yaʼni ularning keng yoki tor maʼno ifodalashiga bogʻliq. Sinonimlar va ulardan foydalanishga eʼtibor uzoq davrlardan boshlangan. Oʻz davrida buyuk mutafakkir va shoir, tilshunos va adabiyotshunos olim Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida sinonim soʻzlarning nutqni boyitishdagi rolini chuqur tahlil qilib bergan edi. Sinonimlar stilistik figura sifatida quyidagi maqsadlarda ishlatiladi: 1. Maʼnoni kuchaytirish, umumlashtirish, jamlash maqsadida sinonimik juft soʻzlar ishlatiladi: baxt-saodat,

qadr-qimmat, hurmat-ehtirom.¹ Bunday vaqtda ikkinchi sinonim birinchisining aynan takrori bo'lmay, balki u ifodalayotgan tushunchani qo'shimcha belgisi bilan to'ldirib turadi. 2. Fikrning nutqdagi o'xshash yoki yaqin tafsilotlarini xilma-xil shakllarda ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq sinonimlar ishlatiladi. Bunday vaqtda sinonimlar turli ko'rinishlarda, chunonchi, o'zak sinonimlar shaklida (katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan), qo'shma, yasama so'zlar shaklidagi (dov yurak, qo'rqmas) sinonimlar, birikma sinonimlar (farq qilmoq, tafovut qilmoq) va nihoyat, evfemistik so'z yoki so'zlar birikmas orqali ifodalanadigan (og'ir oyoq, ikkiqat, homilador, yukli) sinonimlar shaklida bo'ladi.

Sinonimlar nutqni ta'sirchan bayon qilishda hamda uslubning rangdor bo'lishini ta'minlashda, qaytariqlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Sinonimlarning turli xususiyatlarini o'rganish bo'yicha o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiqotlar yozilgan. Sinonimlarning turlari va ta'rifi haqida turlicha fikrlar bildirilgan, lekin ularning hammasi mohiyati bilan bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Yuqorida ham qayd etilganidek, sinonimlar shakli jihatidan har xil, lekin ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlardir. O'zbek tilshunosligini o'rganish sohasida bir qator ishlar yaratilgan. Hozirgi kunda sinonimlar haqida ham ko'plab olimlar fikrlar bildirishyapti. Publisistik matnlarning stilistik xususiyatlari va lingvopoetik munosabatlari hamda nutqiy muloqotga oid jihatlari, ularda so'z qo'llash mahorati, leksik, frazeologik, gap qismlarining mazmun jihatidan o'zaro bog'lanishi, matn tarkibining statistik tahlili kabi masalalarga qaratilgan. Sinonimlar tilda qanchalik ko'p bo'lsa, uning leksik vositalari ham shunchalik boy va rang-barang ekanligini ko'rsatadi. O'zbek tilida ham nemis tilida ham sinonimlarga ko'p duch kelamiz. Leksik grammatik muammolar bilan birga tarjimada so'z va iboralardan tanlab foydalanish tarjimon maxoratiga bog'liq. Umuman tarjimada grammatik muammolar juda katta qiyinchilik tug'diradi. Bir kishining fikrini ikkinchi bir kishiga tarjima qilib berish mashaqqati ayniqsa ikki xil til oilasiga kiruvchi tillarda yaqqol bilinadi. Bu xolatni biz o'zbek va nemis tillarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Til guruhleri orasida flektiv- Flektive Sprache, agglyutinativ- Zusammenfugende Sprache til guruhleri mavjuddir. O'zbek tili agglyutinativ tillarga, nemis tili esa flektiv tillar guruhiga mansubdir. Bu ham o'z navbatida tarjima ishini qiyinlashtiradi. Yoki nemis tilida "Er sagte ihr" deyilgan bo'lsin. Biz buni qanday tarjima qilamiz? "U unga aytdi" desak, o'zbek tilida ko'p ma'noli tarjima hosil bo'ladi. Nemis tilida rod kategoriyasi mavjud bo'lganligi uchun ham yuqoridagi gapda aniq berilgan. Ya'ni: 3- shaxs mujskoy rod, "Er" o'zbek tilida esa rod kotegoriyasi mavjud emas. U hoh mujskoy rod hoh jenskiy rod bo'lsin, bir xilda faqat u deb tarjima qilinadi. Buning natijasida turlicha chalkashliklar yuzaga keladi. Er kishi ayol kishiga aytdimi? Yoki aksinchami? Buni aniqlab olish tekstni o'qimay turib mumkin emas. Ana shunday paytda tarjimon maxorati yana ish berishi

¹. 7. Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 бет.

kerak. Konteksdan kelib chiqib, o'zbek tilida tarjima qilish jarayonida "Er" o'rniga "U" deb emas, balki, gapirayotgan kishining ismi qo'yiladi. Ibr ham xuddi shunday qilinishi kerak bo'ladi. Shundagina tarjimadan bahramand bo'layotgan shaxs (kitobxon) turlicha tushunmovchiliklarga to'qnash kelmaydi. Tarjimachilikda muammolar juda ko'p, ammo ular ichidagi dolzarb muammo sinonimlar tanlash muammosidir. Sinonim so'zlar va iboralar bir xil ma'noga ega bo'libgina qolmay, ularning xar biri stilistik bo'yoqqa ham ega bo'ladi. Tarjimon esa aynan shuni o'z e'tiboridan qochirmasligi lozimdir. Chunki stilistik bo'yoqdorlik tarjimaning jozibadorligini, so'zlarning o'z vaqtida to'g'ri ishlatilishini ta'minlab beradi. Nemis tilining sinonimlari xilma-xildir. Barcha sinonimlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: to'liq va to'liqsiz. To'liq sinonimlar; To'liq (mutlaq) sinonimlar deganda biz aynan bir xil real ma'noga ega bo'lgan, ya'ni bir va bir xil tushunchani ifodalovchi, har qanday kontekstda bir-birini almashtira oladigan va uslubiy jihatdan neytral rangga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalarini tushunamiz. So'z birikmalari ham sinonim sifatida paydo bo'lishi mumkin, aynan kimgadir o'xshaydi; bir tuxumga o'xshamoq, boshqasiga o'xshamoq; bir tomchi suv kabi bo'l, bularning barchasi "aynan o'xshash" degan ma'noni anglatadi. Bu ibora bitta so'zning sinonimi sifatida paydo bo'lishi mumkin.

To'liq sinonimlarning aksariyati nemis va boshqa ko'plab chet tillaridan kelib chiqqan so'zlardan iborat: Instant - moment, translyatsiya - radio, premyera - reklama, platforma -sayt, sim – telegraf, onlayn-set, planshet va boshqalar. Bir ma'noli bo'lsa, leksema shakllar semantik tuzilmalariga ko'ra butunlay bir xil yoki har xil bo'ladi, ya'ni bu holda ularning ma'no elementlaridan yoki urug'idan yasalishining mazmuni va tarkibida to'liq kelishik yuzaga keladi. Ikki til birligi voqelikning bir xil ko'rinishini anglatadi va shuning uchun bir xil matn muhitida erkin vositachilik qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Urunbayevna, I. O. (2024). TARJAMADA LEKSIK SINONIMLARNING O'ZIGA XOS KATEGORIYALARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 17(1), 182-184.
2. Urunbayevna, I. O. (2024). TUSHUNCHA VA SO'ZNING O'ZARO MANSUBLIK MUNOSABATI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 17(1), 160-163.
3. Urunbayevna, I. O. (2024). SO 'ZNING LEKSIK MANOSI VA MATNDA LEKSIK QO 'LLANILISHI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 17(1), 164-168.
4. Ismanova, O. (2023). NEMIS VA OZBEK TILLAR KESIMIDA TARJIMONNING TARJIMADA LEKSIK SINONIMLARDAN TANLAB

- FOYDALANISH USLUBLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 157-160.
5. Urunbayevna, M. O. (2024). AFORIZMLAR VA HIKMATLI SO'ZLAR MAZMUN VA MOHIYATI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 18(5), 188-190.
 6. Odinaxon, I. (2023). TURLI TIZIMLI TILLARDA TARJIMON MAHORATI. *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 1(4), 27-32.
 7. Ismanova, O. (2023). NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11), 93-97.
 8. Axrorova, R. U., Urunbayevna, I. O., & Ibrohimjon ogli, Q. A. (2022). XORIJIY TILLARNI OQITISHDA HAR BIR OQUVCHI BILAN INDIVIDUAL SHUGULLANISH VA KOPRIK TIL MOHIYATI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 22-24.
 9. Urunbayevna, M. O. (2024). FRAZEOLOGIK TUSHUNCHALAR VA ULARNING TILIMIZDA QO 'LLANISHI. *Journal of new century innovations*, 50(2), 19-21.
 10. Ibrohimjon o'g'li, A. Q., & Urunbayevna, O. I. (2022). NEMIS FRAZEOLOGIZMLARNING RIVOJLANISH TARIXI VA TARAQQIYOTI HAMDA O'ZBEK FRAZEOLOGIZMLARI BILAN QIYOSIY TAHLILI. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 202-205.
 11. Urunbayevna, M. O. (2024). FRAZEOLOGIK TUSHUNCHALAR VA ULARNING TILIMIZDA QO 'LLANISHI. *Journal of new century innovations*, 50(2), 19-21.